

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KARIMOVA SAFO SAYDULLAYEVNA

**“BAXT” KONSEPTINING BADIY MATNDA VOQELANISHI VA
TARJIMA MUAMMOLARI (O‘ZBEK POEZIYASINING INGLIZ TILIGA
TARJIMASI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Karimova Safo Saydullayevna

“Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari
(o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida)..... 3

Каримова Сафо Сайдуллаевна

Реализация концепта “счастье” в художественном тексте и проблемы
перевода (на примере перевода узбекской поэзии на английский язык)..... 25

Karimova Safo Saydullaevna

Realization of the Concept “Happiness” in a Literary Text and Translation
Problems (on the Example of Uzbek Poetry Translation into English)..... 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KARIMOVA SAFO SAYDULLAYEVNA

**“BAXT” KONSEPTINING BADIY MATNDA VOQELANISHI VA
TARJIMA MUAMMOLARI (O‘ZBEK POEZIYASINING INGLIZ TILIGA
TARJIMASI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil1697 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarov Shahriyor Safarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yusupova Shoira Botirovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 21 » oktabr soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/358 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 07 » oktabr kuni tarqatildi.

(2023-yil « 07 » oktabr dagi 23-28 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida fanning zamonaviy yo‘nalishlari, shu jumladan, kognitologiya, lingvomadaniyat, olamning lisoniy, poetik, konseptual manzarasini o‘rganish va madaniyatlararo muloqot doirasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda, badiiy matn tahlili, tarjima asarlarini qiyosiy aspektda tekshirish, turli milliy madaniyatlarga tegishli asarlarni o‘rganish, milliy mentalitetga xos xususiyatlarni ochib berish, ularda kechgan transformatsion jarayonlarga ilmiy baho berish yo‘nalishidagi ilmiy–nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, turli xalqlarning milliy madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, muallifning individual badiiy tafakkurining kognitiv tuzilishi, poetik matn xususiyatlarini o‘rganishning milliy-madaniy konseptual soha bilan bog‘liq lisoniy kontseptuallashtirish hodisasini nazariy baholash imkoniyatini yaratadi. Dunyo tilshunosligida milliy-madaniy konseptual sohani badiiy matnda aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari, konseptning poetik matn doirasida shakllanishi, badiiy matnlarning antroposentrik talqiniga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Buning mantiqiy natijasi sifatida yozuvchining ijodiy faoliyatida milliy mentalitetni o‘zida mujassam etish muammolari, asarning mazmunini shakllantirish jarayonida kognitiv tuzilmalarning rolini aniqlash, poetik matn, uning konseptual tuzilishi, qiyosiy tahlili, tarjimada qayta yaratilishi muammolari va muallifning individual konseptual sohasini tavsiflashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga ta'sirini zamonaviy tilshunoslik doirasida asoslashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda inson huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlarini muhim qadriyat darajasiga ko‘tarilgan yangi O‘zbekistonni davlatini qurish borasida jiddiy tashabbuskorlik amalga oshirilayotgan bugungi kunda badiiy adabiyot vakillari ijodi, ularning asarlarida inson fenomenini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek milliy qadriyatlari, ma‘naviyati, madaniyatini o‘zida mujassam etgan poetik matnning tadqiqi hamda uning tarjimasini amalga oshirish muammolarini o‘rganish dolzarblashmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847 sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida ilmiy tahlil va talqin birligi hamda termin sifatida "konsept" atamasi 1990 - yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Milliy-madaniy konseptual sohani badiiy matnda aks ettirishning umumiy va o'ziga xos muammolari D.S.Lixachev, Z.D.Popova, I.A.Sternin, N.F.Alefirenko, O.E.Bespalova, S.A.Askoldov, A.R.Babushkin, S.G.Vorkachev, V.G.Zusman, V.I.Karasik, G.G.Slishkin, L.K.Bayramova, I.A.Tarasova, V.A.Rishalnikova, L.V.Miller², shuningdek, mahalliy

² Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Сер. лит. и яз. 1993. №1. – С. 4-10; Попова З.Д., Стернин И. А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 30 с.; Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: Теоретическое исследование. – Волгоград: Перемена, 2003. — 96 с.; Беспалова О.Е. Концептосфера поэзии Н.С. Гумилева в ее лексическом представлении. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб, 2002. – 24 с.; Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология/ Под ред. проф. В.Н. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика. Дисс... д-ра филол. наук. – Воронеж, 1997. – 275 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. №1. – С. 64-72; Зуспан В.Г. Диалог и концепт в литературе. Литература и музыка. – Новгород, 2001. – 110 с.; Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 75-80; Байрамова Л.К. Счастье и несчастье как ценность и антиценность во фразеологической парадигме. – Казань: Центр инновационных технологий, 2011. – 275 с.; Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2010. №4. – С. 742-745; Пищальникова В.А. Концептуальная система индивида как поле интерпретации смысла художественного текста // Язык. Человек. Картина мира: Материалы Всероссийской научной конференции. В 2 ч. 4.1. – Омск: Омск. гос. ун-т, 2000. – С. 45-51; Миллер Л.В. Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория // Мир русского слова. – 2000. № 4. – С. 39-45.

tadqiqotchilardan Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, M.Galiev, D.Xudoyberganova, A.A.Abdulazizov, N.M.Djusupov, O'.Q.Yusupov, M.M.Raxmatova, T.Mardiev, N.Z.Normurodovlarning³ asarlarida ko'rib chiqilgan. Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar bu borada tadqiqotlar olib borgan bo'lsa-da, hozirgacha ushbu hodisaning yakdil qabul qilingan aniq ta'rifi mavjud emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning tobora takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan hodisa bo'lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisaga nisbatan juda ko'plab olimlar o'z munosabatlarini bildirib kelmoqdalar.

Konseptning poetik matn doirasida shakllanishi N.Arlauskayte, L.O.Butakova, J.N.Maslova, V.A.Rishalnikova, O.E.Bespalova, U.I.Nosirova, I.K.Mirzaev, J.Boase-Beir⁴ kabi olimlar ishlarida o'z aksini topgan. Biroq, o'zbek tilshunosligida poetik matnning konseptual tuzilishi, qiyosiy tahlili, shuningdek, uning tarjimada qayta yaratilishi muammolariga bag'ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Diskursning kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik tadqiqi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari zamonaviy poetik matnlarda "baxt" konseptining lingvomadaniy, kognitiv, lingvofalsafiy jihatlarini tavsiflash, shuningdek, ularning tarjima tilida qayta yaratilishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

konsept hodisasi mohiyatini asoslovchi yondashuvlarni nazariy tadqiq qilish va bildirilgan fikrlarga munosabat bildirish;

³ Safarov Sh.S. "Konsept" hodisasi haqida // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. – Samarqand, 2010. – B. 185-188; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitive linguistics. – T. Vneshinvestprom, 2018. – 160 p.; Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. – Toshkent, 2015; Abdulazizov A.A. О соотношении когнитивной семантики и стилистики // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011; Джусупов Н.М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте. Авт. дисс...к.ф.н. – Т.: 2006. – 29 с.; Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamaları xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materillari. – Toshkent, 2011. – B. 49; Raxmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2019. – 33 b.; Mardiev T. "Baxt" konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. – Samarqand, 2016. №10. – B. 36-44; Normurodova H.Z. Антропоцентризм художественного дискурса. – Т., 2019. – 164 с.

⁴ Арлаускайте Н. Проект когнитивной поэтики: дисциплинарные границы // Literatūra. 2004. № 46 (2); Бутакова Л.О. Когнитивная поэтика: вариант интерпретации текста // Предложение и слово: межвузовский сборник научных. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 2002; Маслова Ж.Н. Когнитивная концепция поэтической картины мира. Монография. – М.: ФЛИНТА, 2012. – 420 с.; Пищальникова В.А. Психопоэтика. – Барнаул: Изд-во Алтайского ун-та, 1999. – 176 с.; Беспалова О.Е. Концептосфера поэзии Н.С. Гумилева в ее лексическом представлении. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб, 2002. – 24 с.; Nosirova U.I. Poetik matnning pragmatik xususiyatlari. – Farg'ona: Classic, 2020. -152 б.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Автореф. дисс... докт.фил.наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.; Boase Beir J. Poetik compounds: The principles of poetic language in Modern English Poetry. – Tubingen: Niemeyer, 1987;

poetik matnda badiiy konsept voqelanishining tavsifiy belgilarini ajratish va “baxt” konsepti faollashuvini shartlovchi omillarni aniqlash;

o‘zbek va ingliz tili badiiy matnida “baxt” konsepti voqelanishining falsafiy, madaniy va kognitiv jihatlarini asoslash;

poetik matnda “baxt” konseptual metaforasining voqelanishini qiyosiy o‘rganish;

poetik matn tarjimasida “baxt” konsepti faollashuvi muammolarini belgilash hamda ushbu muammolar echimini topishga oid tavsiyalarni taklif qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tili poetik matnida voqelangan “baxt” konseptining assotsiativ bog‘lanishlari va kognitiv modellari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Baxt” konseptining o‘zbek va ingliz tili poetik matnida voqelanishi hamda tarjima tilida berilishining lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, konseptual, kontekstual-pragmatik, kognitiv-diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat. shaxsning konseptual tizimi shakllanishida lisoniy tarkib muayyan konseptning obrazli, emotsional, assotsiativ bo‘lishini ta’minlashi va u yadro hamda sarhadga ega bo‘lgan bilimlar, tasvirlar, g‘oyalar, uyushmalar sohasini tashkil qilishida milliy, madaniy-tarixiy va shaxsiy tajriba asosida namoyon bo‘lishi asoslangan; badiiy konsept tafakkur birligi, ijtimoiy ong, tolerantlik ruhiyati, alohida ijodkor yaratgan matnda lisoniy voqelangan hodisa sifatida kognitiv (mantiqiy)/badiiy konsept oppozitsiyasining asosi ob’ektivlik / sub’ektivlik, umuminsoniylik / individuallik belgilariga asoslanganligi dalillangan; poetik matnda “baxt” konseptual metaforasining birma'nolilik va ko'pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog'liq va bog'liq emasligida namoyon bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklarga ularning turli matnlar doirasida kontekstual mazmun kasb etishi, milliy konseptual maydon va mentalitetning ma'lum bir qismini ifodalashi aniqlangan; “baxt” konseptini adekvat tarjima qilishning birlamchi omillarini matnga xos bo'lgan intertekstuallik, kontekstual vaziyat, shakl va mazmun mutanosibli/nomutanosibli hamda tillararo struktur, sistem va funktsional assimetriya, ikkilamchi omillarini esa uning derivativ tabiati, dinamik xarakteri tashkil etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

konseptual tahlilning ishlab chiqilgan usuli tabiatan universalligi va muallifning konseptual maydoniga kiradigan boshqa badiiy konseptlarni o‘rganish jarayonida qo‘llanishi mumkinligi hamda natijalari nafaqat filologiya balki boshqa gumanitar va ijtimoiy fanlar uchun ham muhimligi izohlangan;

poetik matn doirasida “baxt” konsepti faollashuvi borasida olib borilgan tahlil metodlari boshqa turdagi konseptual maydonlarni aniqlashda asos bo‘la olishi aniqlangan;

tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek va ingliz filologiyasi fakul’tetlari talabalari uchun uslubiy va tahliliy material sifatida foydalanish, adabiyotshunoslik nazariyasi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo‘yilishi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, konseptual, kontekstual-pragmatik, kognitiv-diskursiv tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek va ingliz tili poetik matni materiallari asosida konseptual vositalarni falsafiy, madaniy, kognitiv jihatdan tadqiq qilish lisoniy omillar tabiatini yanada kengroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradi, ushbu holat erishilgan xulosalarning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi hamda zamonaviy tilshunoslikning nazariy asoslarini boyitish, tarjima muammolarini o‘rganish va hal qilishning yangi usullarini ochib berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati olingan natijalar va materiallardan oliy o‘quv yurtlarida umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, stilistika va badiiy matn tahlili, matn tilshunosligi, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo‘yicha ma‘ruzalar va seminarlarni tayyorlash va o‘tkazishda; tarjimashunoslikda badiiy matnning kognitiv strukturasi, lisoniy vositalarning konseptual faollashuvi va ularning tarjima tilida qayta yaratilishi to‘g‘risida tavsiyalarni shakllantirish, darsliklar yozishda, shuningdek, maxsus lingvistik lug‘atlar va ma‘lumotnomalarni tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasini misolida)ni aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

shaxsning konseptual tizimi shakllanishida lisoniy tarkib muayyan konseptning obrazli, emotsional, assotsiativ bo‘lishini ta‘minlashi va u yadro hamda sarhadga ega bo‘lgan bilimlar, tasvirlar, g‘oyalar, uyushmalar sohasini tashkil qilishida milliy, madaniy-tarixiy va shaxsiy tajriba asosida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 16-fevraldagi №62/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, badiiy-madaniy konseptning badiiy matn doirasida faollashuvining lisoniy omillari tahliliga oid xulosalarga erishilgan;

badiiy konsept tafakkur birligi, ijtimoiy ong, tolerantlik ruhiyati, alohida ijodkor yaratgan matnda lisoniy voqelangan hodisa sifatida kognitiv (mantiqiy)/badiiy konsept oppozitsiyasining asosi ob'ektivlik/sub'ektivlik, umuminsoniylik/individuallik belgilariga asoslanganligi bilan bog'liq xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Evropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-fevraldagi №376/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning mundarijasini shakllantirishda kognitologiya, psixolingvistika, lingvo-madaniyatshunoslik atamalarining ifodalanishi, ularning tipologik tahlili, o'zbek va ingliz tilida "baxt" konseptining faollashuvini poetik misollar orqali o'rganish, "baxt" konseptini ingliz tilida o'rganish kabi tavsiyalar joriy qilingan;

poetik matnda "baxt" konseptual metaforasining birma'nolilik va ko'pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog'liq va bog'liq emasligida namoyon bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklarga ularning turli matnlar doirasida kontekstual mazmun kasb etishi, milliy konseptual maydon va mentalitetning ma'lum bir qismini oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida I-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-fevraldagi 378/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijadam poetik matnning konseptual tuzilishi tadqiqi, "baxt" konseptining o'zbek tili va ingliz tili she'riy matnida faollashuvi, ularning qiyosiy o'rganilishi, hamda o'zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan poetik tarjimalar tahlili natijasida "baxt" konseptining berilishini hamda aslyat va tarjima tili o'rtasidagi konseptual muqobillik darajasini aniqlash usullari "Lingvomadaniyatshunoslik", "Badiiy asar tarjimasi tahlili", "Qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi", "Yozma tarjima" kabi fanlarning nazariy masalalarini boyitishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy qismi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Konsept mohiyatini asoslovchi yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida konseptning tavsifiy belgilari va lingvomadaniy tahlili, psixolingvistik mazmuni va lingvokognitiv izohi, shuningdek, poetik matnda badiiy konsept voqelanishining tavsifiy belgilari ko'rib chiqilgan.

Konsept mohiyatini tushunishda lingvofalsafiy, lingvomadaniy, psixolingvistik va lingvokognitiv yondashuvlar majud. Jumladan, lingvofalsafiy jihatdan konsept quyidagi xususiyatlarga ega: so'zning semantik “mag'zi” obraz, tushuncha, ramzda namoyon bo'ladi; mantiqiy tushuncha; induktiv-empirik tushuncha; ideal” olam ob'ekti.

Konseptning lingvomadaniy izohini quyidagicha belgilash mumkin: inson ongidagi madaniyat “quyqasi”; olamning milliy manzarasi obrazi; til + tafakkur + madaniyat birligi; qiymat + baho.

Psixolingvistik jihatdan konsept quyidagi mazmunda kelishi aniqlandi: V.A. Rishalnikova modeli (konsept – belgi, tushuncha, tasavvur, predmetlik ma'nosi, emotsiya, baho): hissiy-baholovchi idrok; shaxsiy mazmun; nutqiy, hissiy mazmun.

Olimlarning fikriga tayangan holda konseptning lingvokognitiv mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: mental + psixik resurs + bilim + tajriba; lisoniy ma'noning idioetnik tabiati; turli lisoniy ifodaga ega; sinonimik qatorning umumiy ma'nosi.

Konseptlarni o'rganishda lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuv o'rtasidagi farqlarni umumlashtirib, V.I. Karasik ularni quyidagilarda tasvirlaydi: lingvokognitiv konsept – bu individual ongdan madaniyatga, lingvomadaniy konsept esa – madaniyatdan individual ongga yo'nalgan; madaniy konseptning tuzilishidagi asosiy komponent – qadriyat komponentidir; madaniy konseptlar olam manzarasini belgilaydigan asosiy qarama-qarshiliklarga mos keladi; konseptlar so'zlarning ob'ektiv mazmunini ifoda etadigan, ma'noga ega bo'lgan asosiy madaniy shakllar sifatida e'tirof etiladi va shuning uchun inson mavjudligining turli sohalariga, xususan, tushunchaviylik (fan), majoziylik (san'at) va faoliyatlilik (kundalik hayot) sohalarida shakllanadi⁵.

Poetik matn eng murakkab kodlangan tizim hisoblanadi. Unda obraz, ramz, motivdan tashqari, lingvofonetik vositalarning ma'no hosil qilishdagi roli katta

⁵ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

ahamiyatga ega. Kod tizimi o'quvchi tomonidan bir ma'noda emas, balki uning intellektual boyligi va psixologik, hissiy holatiga bevosita bog'liq holda qabul qilinadigan badiiy tushunchalar tizimi sifatida belgilanishi mumkin.

Poetik matn san'at asari sifatida voqelikni modellashtirish tizimidir: u voqelikni nafaqat aks ettiradi, balki o'z olamini yaratadi, muallif idrokidagi boshqa olamni namoyon qiladi. Poetik matnda olamning estetik konseptuallashtirilishi hosil bo'ladi. Ushbu tizim asosida universal umuminsoniy bilimlar bilan bir qatorda, muallifning noyob, o'ziga xos, ba'zan biri-ikkinchisini inkor etadigan g'oyalari yotadi.

She'riy matnda avval konseptning olamni idrok etishga yo'naltirilgan maqsadli mazmuni shakllanib, keyinchalik obrazli tasavvur ta'sirida yangi assotsiativ-mazmuniy shakllar paydo bo'ladi va natijada yaxlit badiiy konsept yaraladi. Poetik diskursda konseptning o'rnini aniqlash uchun ushbu tushunchaning mohiyatini anglash talab qilinadi.

Shunday qilib, poetik konseptlarni shakllantirishda "she'r materiyasining" o'zi (ya'ni qofiya, assonans, alliteratsiya, ovoz) g'oyat muhim rol o'ynaydi. Ushbu fonetik qatlam reprezentat-belgi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, yoki ko'rish, eshitish, ta'm bilish, xid bilish, taktit kabi modalliklarning qator turlarida uning o'rin olishi kuzatiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, badiiy konsept ongli tafakkur faoliyati jarayonida olam manzarasining u yoki bu bo'lagi haqidagi axborotni qayd etishning muayyan usulidir.

Dissertatsiyaning **"Badiiy matn va milliy konseptosferada "baxt" tushunchasining faollashuvi"** deb nomlangan ikkinchi bobida "baxt" konseptining milliy madaniy xususiyatlari, uning o'zbek va ingliz tili poetik matnlarida lisoniy faollashuvi xususida so'z yuritiladi.

Polyak faylasufi V. Tatarkevich "Inson baxti va saodati" nomli salmoqli asar yozgan. Muallif baxtni eng oliy yaxshilik deb tushunadi. Baxt quvonch, omad va mukammalliksiz bo'lishi ham mumkin. Ammo ular bilan uning sifati oshadi. "Baxtni umuman hayotdan to'liq va doimiy qoniqish deb ta'riflash kerak," deydi V. Tatarkevich⁶. Baxtning sub'ektiv tomoni his-tuyg'ular va baholashdan iborat. Baxt – bu mamnuniyat emas, balki quvonchga o'xshash eng oliy intensivlikning yoqimli holati. Baxt vaqtga ham tegishli, chunki u nafaqat hozirgi, balki o'tmish va kelajak istiqbollarini baholashni ham o'z ichiga oladi. V. Tatarkevich baxt manbalarini omillardan ajratish zarur deb hisoblaydi. U ularni 4 guruhga ajratadi: tashqi manfaatlar, yaxshi his-tuyg'ular, sevimli ish, fidokorona manfaatlar.

Baxt ko'p jihatdan insonning xarakteriga bog'liq. Insonning turli xil moyilliklari baxt uchun turli xil ma'nolarga ega. Hayotda ko'proq ochiqko'ngil, xushchaqchaq, samimiy odamlar baxtli bo'lishga moyil. Baxtli bo'lish uchun atrof-olam, uning tasviri va tuzilishidan qoniqish kerak. Inson dunyodan baxt kutadi, lekin u buni o'zi yaratadi. Insonning baxti uchun boshqa odamlar munosabati, boshqalarning baxti ham zarur. Birovning baxtini his qila olish kerak.

⁶ Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. – М.: Прогресс, 1981. – 367 с.

Shu bilan birga, bu soʻz vaqtlar oʻtishi bilan faoliyat, muvaffaqiyat, turmush tarzi, istaklarning bajarilishi, maqsadlarga erishish kabi maʼnolarni ham bildirib, axloqiy qadriyatlarga yaqinroq boʻlgan tushunchalarni ham anglata boshlagan. “Baxt” konseptining quyidagi sinonimlarini ham misol tariqasida keltirib oʻtamiz: *saodat, omad, shodlik, xursandchilik, iqbol, mamnunlik, baxtiyorlik, tole, murod, niyat, qobil*⁷.

T. Mardiev “Baxt” konsepti borasida olib borgan izlanishlari natijasida ushbu tushuncha oʻz atrofida *er-xotin (oila) munosabatlaridagi ijobiy holat, qarindoshchilikning ijobiy munosabatlari, sogʻlom turmush tarzi, jamoaviy munosabatlardagi ijobiylik (qoʻni-qoʻshni, jamoa va shu kabilarda oʻz oʻrniga ega boʻlish), maʼnaviy-axloqiy turmush tarzi, jismoniy sogʻlik, sevgi, muhabbat, turmush tarzidan toʻlaligicha qoniqish hosil qilish va rozilik, xudodan rozilik, istak-xohishning amalga oshishi, etuklik, turmushga chiqish èki turmush qurish, taqdiridan rizolik, farzandli boʻlish va farzandlarning axloqiy-maʼnaviy etukligi* kabi konseptual birliklarni qamrab oladi, degan xulosaga keladi (Mardiev 2016: 36⁸).

Baxt tushunchasini, bir tomondan, quvonch, mamnunlik, lazzatlansh, qoniqish, ikkinchi tomondan, omad, ishi yurishganlik, omadli taqdir kabi tushunchalardan ajratish uning qamrovini birlashtirib turuvchi tushunchalarning turli jabhalarga tegishli ekanligining oʻzi etarli: bu oʻz taqdirini baholashda mujassam boʻlgan emotsional holat va kundalik hayot kabi tarkibiy qismlardan iboratdir. Farqli belgilarni anglatuvchi atamalarda, baxt subʼektning emotsional xolatidan kelib chiqqan holda, oʻz taqdirini ijobiy baholanishi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot ishi doirasida turli yoshlarga mansub boʻlgan shaxslarni jalb qilib, (10 ta – 20-25 yosh, 10 ta – 25-30 yosh, 10 ta- 30-40 yosh, 10 ta – 40-50 yosh, 10 ta 50-60 yosh) assotsiativ tajriba metodining erkin usulidan foydalangan holda “baxt” konseptining talqini boʻyicha tajriba oʻtkazdik. Maʼlumki, biron bir konseptning tushunilishiga ikki omil taʼsir oʻtkazadi. Bulardan birinchisi lisoniy omil boʻlsa, ikkinchi, sotsiopragmatik xarakterdagi omil, yaʼni tajriba ishtirokchisining shaxsiyati, dunyoqarashi va yoshi kabilari⁹. Oʻtkazilgan tajribamiz natijasida “baxt” konseptining talqini tajriba ishtirokchilarning yoshlariga koʻra turlicha boʻlishi aniqlandi. Jumladan, 20-25 yoshlardagi shaxslar oʻrtasida “baxt” konsepti – “yor vasli”, “oila”, “muhabbat”, “ishq” kabi soʻzlar asosida tasavvur qilindi. 25-30 yoshlardagi respondentlar mazkur konseptga assotsiativ soʻzlar sifatida “farzand”, “muhabbat”, “yor vasli”, “oila” kabilarni tanladilar. Oʻz navbatida, 30-40 yoshlardagi respondentlar – “oila”, “farzand istiqboli”, “yaxshi kasb” kabi assotsiativ soʻzlarni qoʻllasalar, 40-50 yoshlardagi respondentlar “otana”, “vatan”, “sogʻliq”, “oila”, “farzandlar kamoli” kabi iboralar vositasida

⁷ Hojiev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – T. : Oʻqituvchi, 1974. – 307 b.

⁸ Mardiev T. “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va oʻzbek tillari qiyosida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, taʼlim. – Samarqand, 2016. №10. – 36-44 b.

⁹ Shamahmudova A.F. Bilvosita nutqiy aktlar: sotsiolingvistika va pragmatik omillar. – Samarqand: SamDCHTI, 2021. – 106 b.

tasvirladilar. Shuningdek, 50-60 yoshlardagi respondentlar ham aksar hollarda “sog‘lik”, “farzandlar kamoli”, “solih farzand” kabilarni ma’qul topdilar.

“Baxt” konseptining tadqiqi jarayonida assotsiativ-tajriba metodidan tashqari, kognitiv metod hisoblangan retseptiv usuldan ham foydalandik. Tadqiqotimiz doirasida qo‘llanilgan mazkur tajribada 30 ta respondent ishtirok etib, ularning yoshlari 18-25, 35-50 bo‘lib, respondentlarning yoshlaridagi farqlar ularning dunyoqarashidagi farqni nazarda tutgan holda tanlangan edi. Bu usul “baxt” konseptining shaxs yoshiga ko‘ra xususiyatlarini tasvirlab berishga imkoniyat yaratdi hamda kognitiv tasnifiy belgilarini aniqlab, uning obrazli, tushunchali va izohlovchi komponentlarini ochib berdi.

Sotsiopragsmatik tajriba asosida olingan natijalarni tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda, ularning “baxt” konseptining quyidagi belgilari bilan qay darajada mosligiga e’tibor qaratdik: 1) konseptning obrazli mazmuni; 2) axboriy mazmuni; 3) izohlash maydoni.

“Baxt” konseptini respondentlar, jumladan, quyidagi paremiologik birliklar asosida talqin qilishdi:

Birinchi baxting - baxting, ikkinchisi suvga oqding;

Baxt baxtsizlik bilan birga yurar;

Baxt, omad, boylik hamda tinchlik birga yurar;

Aksar respondentlar baxtni pragmatik soxaga taaluqli deb tushunadilar hamda uni insonning o‘ziga, uning hayot tarziga bog‘liq tushuncha sifatida tasvirlaydilar. Respondentlar tomonidan keltirilgan izohlovchi javoblarda nafaqat maqollar, balki aforizmlarga ham duch keldik:

Biz baxtli bo‘lganimizda, doimo mexribonmiz, biroq biz mexribon bo‘lganimizda, doim ham baxtli emasmiz (O. Uayld).

Tajriba davomida olib borilgan kuzatishlarni umumlashtirgan holda shuni aytish lozimki, “baxt” konsepti har qanday insonning lisoniy olam manzarasida muhim o‘rin tutadi va turli ko‘rinishlarda talqin qilinadi. Baxt tushunchasining talqini insonning yosh darajasiga qarab o‘zgaradi, ya’ni inson baxtni 30 yoshgacha moddiy omillarga bog‘liq deb hisoblasa, yoshi ulg‘aygan sari baxt tushunchasi talqini ma’naviy olamga bog‘liq bo‘lib boradi. Shu bilan bir qatorda, baxt omad bilan birga tasavvur qilinadi, buni hatto insonlarning bir-biriga bildirgan tilaklarida ham kuzatamiz (ishda, o‘qishda baxt-omad tilaymiz). Biroq bu yondashuv yagona bo‘lmasdan aksar javoblarda bunga qarama-qarshi yondashuvlarni ham kuzatishimiz mumkin, ya’ni baxt bu eng oliy saodatdir (“baxtli onlar – bu har bir insonning maqsadi va hayoti mazmunidir”; “baxt – bu inson ma’naviy dunyosining eng yuqori cho‘qqisidir”; “baxt - bu faqatgina ma’naviy hodisa va hech qanday moddiy jihat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin emas”; “baxt – inson uchun eng oliy ne’mat”; “baxt - xudodan”).

Shunday qilib, olib borilgan tajriba – sinov natijalari ma’lum til sohiblarining kognitiv idrokiga xos baxt tushunchasining mohiyatini aniqlashga yordam berdi hamda uning farqli belgilarini ajratishga imkon yaratdi.

S.G. Vorkachyov poetik ongda “baxt” konseptini quyidagi tasniflarini keltiradir:

- oddiy inson baxti - “BAXT - XOTIRJAMLIK”

Baxtingiz qadrin biling,

Anduhingiz barbod eting. (Erkin Vohidov. Yod eting)

- gedonik shaklda - “BAXT- LAZZAT”

Sen sabab sevilish baxtini tuydim,

Ko‘zlaringga qarab baxtim deb suydim,

Olam o‘zi go‘zal yolg‘iz sen bilan

Bugun bir dam oshnoman baxt bilan

Baxt oqadi sening toza qoningda (Hamid Olimjon. Muqanna)

- teleologik shaklda - “BAXT- HAYOTIY MAQSAD”

Har bahorga chiqqanda yakkash,

Baxtim bormi, deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,

Baxting bor, deb esadi ellar. (Hamid Olimjon “O‘rik gullaganda”),

- Rassionar shaklda - “BAXT - KURASH”

G‘ayrat qilgan ajdarxoni yutadi,

Rolvonlarim, sizlarni baxt kutadi!

...Chaqmoq kabi uchgan baxtni quchadi (Hamid Olimjon. Muqanna)

- nigilistik shaklda – “HAYOTDA BAXT YO‘Q”

Qayg‘usi yo‘q biror kunni ko‘rmadim,

Biror soat men baxtiyor bo‘lmadim. (Hamid Olimjon. Muqanna)

Bundan tashqari, o‘zbek shoirlari asarida baxtning quyidagi tasvirlariga duch kelamiz:

BAXT – SOG‘LIK:

Ko‘ngil uyi bog‘ bo‘lsa

Tanu jonlar sog‘ bo‘lsa,

Qaddimiz baland bo‘lsa,

SHuning o‘zi baxt erur.

(Internetdan olingan. She‘rlar)

BAXT –YOR XOTIRASI:

Ishon, bunda seni doimo

Esga solar chiroyli tunlar,

Sho‘x yulduzlar, salqin saharlar,

Esga solar baxtiyor kunlar (Hamid Olimjon. Xayolimda bo‘lding uzun

kun...)

BAXT- VATAN:

Yolg‘iz mening Vatanim baxt o‘stirar bog‘ keldi (Hamid Olimjon. G‘alaba qo‘shig‘i)

Poetik matnda “baxt” konseptining metaforik konseptuallashuv holatlari ham uchraydi. Masalan:

Xoki anjir tugab, qovun g‘arq pishgan,

Baxtli tong otar chog‘i uni kuzatdim

Baxt qushi qo'nganini ba'zilar anglamaydi (G'afur G'ulom. Sog'inish)

Emotsional holatlarni tavsiflovchi metaforik yondashuvdan tashqari, lingvistik semantikada prototipik yondashuv ham mavjud bo'lib, unda hissiyotlar ular paydo bo'ladigan odatiy vaziyatlar orqali tasvirlanadi. Bunda nafaqat mantiqiy tasavvur (ya'ni, baxt – bu muhabbat, ozodlik, ushalib bo'lmas orzu), balki uning obrazli, ya'ni shoirning baxt haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq hissiyotlari konseptning predmetli-hissiy qatlamini tashkil qiladi va shu asnoda “baxt lazzati”, “qalb to'la baxt” va boshqa poetik ifodalar yuzaga keladi. Poetik diskursda obrazlilik asosan stilistik vositalar va troplar asosida amalga oshiriladi. Troplar – so'zning ko'chma, obrazli ma'noda ishlatilishi. Trop asosida ma'lum belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki hodisa, predmetning qiyoslanishi yotadi. Troplarning qiyoslash, epitet, metafora, allegoriya, giperbola turlari mavjud: Baxti qora hamda bag'ri biryonman, konkret obraz orqali ifodalash - Bugun bir dam oshnoman baxt bilan kabi turlarini misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin.

Bundan tashqari, badiiy matn konseptosferasi tahlilini olib borar ekanmiz, she'ning asosiy konseptual olamini tashkil qiluvchi “baxt” konsepti butun she'r davomida qay tarzda yoritilganligi juda ham dolzarb. She'ning kulminatsion nuqtasi sifatida satrlarni keltirish mumkin:

Har bahor ham shu bo'lar takror

Har bahor ham shunday o'tadi,

Qancha tirishsam ham u beor

Ellar meni aldab ketadi (ya'ni baxtning sarobligiga urg'u). (Hamid Olimjon, “O'rik gullaganda”).

Poetik konseptning o'ziga xos “noaniqligi” ushbu turdagi matn xususiyatlariga bog'liqdir. Hatto ma'lum mavzuga bag'ishlangan kichik poetik matn madaniy durdona asar bo'lishi uchun har bir shaxsning ongida mavjud bo'lgan qolipga o'ziga xos, takrorlanmas yangilik kiritish lozim bo'ladi, bu, o'rni kelganda, uning dunyoqarashini o'zgartirishga qodir manzarani hosil qiladi. Shu bois, poetik matnda nafaqat konseptning meyordagi, xos mazmunlari faollashadi, balki yangilari ham paydo bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillari tipologik jihatdan bir biriga o'xshamasligi bilan bir qatorda, ularda ijtimoiy-madaniy jihatdan katta farqlarni kuzatish mumkin. Bu tabiiyki, ularning g'arbiy (evropa) hamda sharqiy (turkiy) madaniyatga oidligidandir. Bu esa aksar hollarda til sohiblarining “baxt” konseptining turlicha talqin qilishlariga sabab bo'ladi. O'zbek tili sohiblari uchun “baxt” konseptiga praktsiologik yondashuv xosdir, ya'ni, xayrixoxlik, unga erishish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Ingliz tili sohiblari uchun baxt unga qay yo'l bilan erishilganligidan qat'iy nazar, inson holatining aniqlovchisidir.

“Happy” konseptining lug'aviy ma'nolari “umuman hayotdan qoniqish”ni bildiradi, ya'ni kontekstda ijobiy hissiyotga sabab bo'ladigan konkret manbaga ishora qilmagan holda ifodalanadi:

And because I am happy, and dance, and sing,

They think they have done me no injury (W. Blake. The Chimney Sweeper)

*She's happy here, is happy there,
She is uneasy everywhere* (W. Wordsworth. Lyrical Ballads)

Agar kontekstda xursandchilikning aniq sababiga ishora berilsa, happy sifati aniq hissiyotning ma'nosini bildiradi va "pleased", "glad", "contented", "satisfied", "delighted", "joyous", "merry", "cheerful" kabi sifatlar qatoridan joy oladi.

Dissertatsiyaning "**Baxt**" konseptining badiiy tarjimada voqelanishi" deb nomlangan uchinchi bobida "baxt" konseptual metaforasining asliyat va tarjimada voqelanishi, poetik matn doirasida faollashgan "baxt" badiiy-madaniy konseptining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi muammolari o'rganilgan.

Baxt hissiy konseptdir. Z. Koveches¹⁰ ma'lumotlariga ko'ra, ingliz tilida baxtni ifodalovchi ko'plab konseptual metaforalar mavjud, ammo ulardan uchtasi asosiy metafora sifatida tan olingan: HAPPINESS IS UP; HAPPINESS IS LIGHT; HAPPINESS IS A FLUID IN A CONTAINER.

Madaniyatlararo tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, turli tillar ma'lum bir hissiy konseptlar uchun ba'zi konseptual metaforalarni baham ko'rishlari mumkin, zero universal konseptual metaforalar umuminsoniy tajribalar asosida, ayniqsa, inson hissiyotlari bilan bog'liq holda yaratiladi. Tadqiqotning ushbu bo'limida ingliz va o'zbek tillarida hissiyot metaforik konseptlarini universalligi va farqlari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tili poetik matnida faollashgan BAXT BALANDDA konseptual metaforasi ostida quyidagi slotlar shakllanishi mumkin

HAPPINESS IS UP	BAXT BALANDDA
<ul style="list-style-type: none">• to cheer up• to be in high spirits• to be on cloud nine• to feel up• boost one's spirits• smb's spirits rose• to be in seventh heaven• happiness claim in the sky• spirit doth spread wings• mount up to sky• happy as king	<ul style="list-style-type: none">• baxtdan parvoz qilmoq• baxt ko'kdan tushadi• baxt kamalak• qalb ko'targan ko'kka• baxt balandda• shodlik xandalari falakka tutash• baxt yiroqda• va h.k

Demak, ingliz va o'zbek tillarida HAPPY IS UP – BAXT BALANDDA konseptual metaforasi deyarli bir xil mazmuni ifodalaydi va tarjimada ularning muqobil variantini topish qiyinchilik tug'dirmaydi.

¹⁰ Kövecses Z. Metaphor and emotion. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 242 p.

Chog‘ishtirilayotgan ikki tilda ham BAXT YORUG‘LIK konseptual metaforasining faollashuvi kuzatildi:

HAPPINESS IS LIGHT	BAXT YORUG‘LIK
<ul style="list-style-type: none">• to glowe with happiness• to lit up• radiate joy• face is bright with happiness• a sunny smile• a kindling light eye• to raise flame in the breast• flash upon eye• bliss of solitude• life is bright• heaven’s glory in her light• sunshine in the breast	<ul style="list-style-type: none">• tong baxt jamoli• baxt quyosh• baxt yorqin• ko‘zlari yalt etgan nigoh• shula ko‘zlarimda aks etar• ko‘nglim nur bilan to‘lgan• barq urmoq• ko‘zdagi nur• ko‘nglim ravshan• baxt jilosi• baxtli tong otar chog‘• baxt nur bo‘lib oqadi

“Baxt” va “yorug‘lik” konseptlari dunyoda mazmunan mushtarak va umuminsoniy qadriyatlarga xos tushunchalardir. Ularning bir-birini to‘ldirib kelishi turli millat vakillari tilida kuzatiladigan holatdir¹¹. Mazkur holat ikki xil oilaga mansub tillarning allamorfik (universal) tuzilmalarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy matn tarjimasi jarayonida konseptlarning berilishi aloxida yo‘nalish hisoblanadi, boisi “konsept o‘zida milliy xususiyatni aks ettirib, qiyoslanayotgan tillardagi konseptlar har doim ham ekvivalentlikni tashkil qilmaydi”¹². Tarjimon “ikki madaniyat o‘rtasidagi mediator vazifasini bajaradi, u, manba va tarjima matni lisoniy dunyo manzalaridagi farq evaziga yuzaga keladigan tillardagi kognitiv va kommunikativ lakunalarni to‘ldirishga yordam beradi”¹³.

Shotland shoiri R. Bernsning she‘rini tarjima qilgan Begoyim Xolbekova ingliz tilidagi “breast enthroned” iborasini “baxt” konsepti ko‘lamida beradi:

Let her crown my love her law,

And in her breast enthroned me. (R. Burns. I reign in Jeanie’s bosom)

Tarjimasi:

Yor ko‘nglingning qiroliman,

Baxtim bo‘ylaydi ko‘k qadar.

Tarjimon shoirning pragmatik maqsadini to‘g‘ri tushungan. Asliyatlardagi she‘rning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak, “u mening sevgimni o‘z

¹¹ Danielle Morali, *Anthropologie de la lumière. Etudes réunies.* – Nancy: Presses Universitaires de Nancy, 1994. – 94 p.

¹² Попова З.Д., Стернин И.А. *Очерки по когнитивной лингвистике.* – Воронеж: Истоки, 2001. – 192 с.

¹³ Воркачев С.Г. *Культурные концепты и перевод: макаризм в тексте Евангелия // Вестник МГОУ, 2003. № 4.* – С. 88

